

O‘tkir Hoshimov hikoyalarida Vatanga bo‘lgan muhabbatning ulug‘lanishi

Orifjon Odilov

*Taqdir taqazosi bilan badaviylar oilasida tug‘ilsam,
ellik darajali issiqda quturgan qum bo‘roni men uchun eng
go‘zal manzara bo‘lur edi.*

*Taqdir taqazosi bilan eskimoslar oilasida tug‘ilsam,
ellik darajali sovuqda quturgan qor bo‘roni men uchun
eng go‘zal manzara bo‘lur edi...¹*

O‘tkir Hoshimov.

Ona yurtga muhabbat qo‘yish inson zotigagina xos fazilat. Badiiy adabiyot vujudga kelgandan beri yaratilgan jahon adabiyoti namunalarida kishining ona yurtiga, tug‘ilib o‘sgan Vataniga bo‘lgan mehr tuyg‘usiga asosiy badiiy motiv sifatida qaralib kelinadi. Ammo biz tadqiq etayotgan ijodkor – O‘tkir Hoshimov bibliografiyasini kuzatar ekanmiz, bir jihat e‘tiborimizni tortdi: adib ijodiy bisotida Vatan tuyg‘usiga bag‘ishlangan maxsus asarlar mavjud emas ekan. Shunday bo‘lsa-da, adib ijodida kishining ona yurtiga bo‘lgan muhabbati yoritilgan va Vatan tuyg‘usi ulug‘langan asarlar talaygina. Xatto, O‘tkir Hoshimovning ilk badiiy asari – “To‘rt maktub” hikoyasidayoq qahramonlarning Vatanga bo‘lgan muhabbati yorqin chizgilar bilan tasvirlangan. “To‘rt maktub” hikoyasining qayta badiiy sayqallanishi natijasida dunyoga kelgan “Cho‘l havosi” qissasidagi Botirning quyidagi xitoblari bizga shunday xulosalar beradi:²

“Ajoyib! Cho‘lning qoq o‘rtasida kattakon internat binosi qad ko‘taradi. Unda savxoz ishchilarining bolalari o‘qiydi. Qanday yaxshi-a! *(Bu o‘rinda qahramonning Vatani obod bo‘lib borayotganidan zavqlanishiga e‘tibor bering – G.I.).*

¹ O‘tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. Toshkent: Sharq, 2013. – B. 166.

² “To‘rt maktub” hikoyasi O‘tkir Hoshimovning ilk ijod namunasi edi. Asar “Toshkent haqiqati” gazetasining 1963-yil 17-aprel sonida e‘lon qilingan. Ko‘p o‘tmay ushbu hikoya asosida “Cho‘l havosi” qissasi yaratilgach (“Sharq yulduzi” 1963-yil 10-son) “To‘rt maktub” keyingi to‘plamlarga kiritilmadi. Binobarin, biz manba sifatida izlaganimizda bu hikoyani topa olmadik. Yuqorida aytganimizdek, “Cho‘l havosi” qissasi ayni shu “To‘rt maktub” hikoyasi negizida dunyoga kelganligini inobatga olib, tahlil “Cho‘l havosi”ga nisbatan olindi.

Inson bolasi dunyoga kelganidan keyin, o'zidan hech bo'lmasa bitta yodgorlik qoldirib ketishi kerak, yashashning ma'nisi shu, der edi otam... U (*ta'kid bizniki – G.I.*) Cho'lni bo'ston qilishdek (*Vatanni obod qilishdek – G.I.*) katta ishga (*xayrli ishga – G.I.*) hissa qo'shayotganim uchun quvonadi. Sizlar o'zingizga haykal qurayapsiz, deydi".³ E'tibor bersak, yuqoridagi misralarda Vatan tuyg'usi misraosti ma'no sifatida kelgan. Ammo bu shunchaki yo'l-yo'lakay tasvir mahsullari. Bunday misollar O'tkir Hoshimov ijodida istagancha topiladi. Biz bevosita e'tiborni adibning Vatan tuyg'usi nisbatan yorqinroq yoritilgan boshqa bir asariga qaratmoqchimiz. Bu "Muhabbat" hikoyasidir.

Hikoyaning nomi "Muhabbat" deb nomlansa-da, yetakchi badiiy g'oya, bizningcha, faqat muhabbat tuyg'usining tasvirlanishida emas. Hikoyada, avvalo, muhabbat bahonasida insoniy o'zlik masalasi, insonning o'z qadr-qimmatini yo'qotib qo'ymasligi sharti haqidagi mushohadalar o'rta tashlanadi, shuningdek, kishi g'ururini hamma narsadan ustun qo'yishi kerakligi, iroda, sabot, ezgulikka sadoqat, kishidan ko'rgan yaxshilikni unutmazlik kabi masalalar ham badiiy muammo tarzida tasvirlanadi. Ammo sanab o'tilganlarning birortasi hikoyadagi Vatanga bo'lgan muhabbat tasvirichalik quyuk bo'yoqda emas.

Hikoyada bosh qahramon Tirkashning kelib chiqishi haqida alohida qism bor (Hikoyaning II qismi). E'tibor bersak, muallif bu tasvir bilan Tirkashning Qosim ota tarbiyasiga tushib qolish tarixinigina yoritmaydi, balki, uning aslan lo'li farzandi ekanligini o'quvchiga "shipshiydi".

Bilamizki, jahon adabiyotida lo'lilar otashin ishq tuyg'usiga limmo-lim qalb egalari sifatida tasvirlangan. Fikrimizning isboti uchun birgina "Kay va Gerda" ertagidagi Kuz malikasi va u mansub bo'lgan lo'lilar qavmini yodga olish kifoya: sho'x lo'lilar ulusi, yarim tunga qadar childirma chalib qilinadigan bazmlar, raqsga tushib qo'shiq aytishlar, dunyo tashvishlariga zarracha beparvo, havoyi elat ko'z oldimizga keladi. Tirkash ham xuddi shunday xalq farzandi. Bir nigohda sevib qolish, ishq otashi alangalanishidagi keskin sur'at, muhabbatining tizginsiz va anchayin yuxoligi uning tomirida oqayotgan qonga ishora bo'lsa ajab emas. Axir

³ O'tkir Hoshimov. Sevgi qissalari. Toshkent: O'zbekiston, 2013. – B. 291.

Tirkash ko'chmanchi lo'li qiz Dilorni majnunlarcha sevib qolmadimi, u bilan uchrashgani bu qadar oshiqishi va mahbubasidan bo'sa olishdagi telbavorligi, nihoyat, qadrdon dalalari, unga mehr ko'rsatgan odamlarni tashlab Dilorning ortidan ergashib ketishga ham tayyor bo'lishi uning asliyatidan darak berayotir.

Ammo bir nozik masala bor: Tirkashni ko'chmanchi lo'lilar emas, o'troq o'zbek dehqoni – Qosim ota tarbiyalagan. U yillar davomida o'zbeklar orasida o'zbekona yashadi. Zero, Tirkashning o'zi ham o'zligini Tentaksoylik o'zbek hisoblaydi. Eslang:

“U rohat qilib yotganida pastdan mashinaning bo'g'iq ovozi eshitilar, kabina eshigi taraqlab ochilardi.

- Uxlab qoldingmi, hoy lo'li!

Tirkash shafyorlarning qo'polligiga parvo qilmas, o'zini shu qishloqning bir o'zbeki, bir farzandi hisoblardi”.⁴

Shuning uchun ham, u qishloqdan tobora uzoqlashar ekan, uning yuragini iztirob kemiradi. Tentaksoydan uzoqlashgani sari qadaming sekinlashib borishi ham, qilayotgan ishini gunoh deb hisoblay boshlashi ham, keng dalada chang-to'zon ko'tarib ortga qaytayotgan qoramollar podasini ko'rganda ko'z o'ngining qorong'ulashib ketishi ham undagi qandaydir tushunarsiz tuyg'ularning bezovtalana boshlaganidan dalolat beradi. Oqibat suyuklisi ham ko'ziga ko'rinmay qoladi. Ayniqsa, Dilorning so'nggi so'zlari qattiq botadi va shartta ortiga qaytadi.

Keling o'sha lavhani eslaylik:

“Tirkash qishloqdan chiqib ketayotganida hozirgidek ko'ngli g'ash bo'lishini o'ylamagandi... U Dilorni endi o'ziniki deb o'ylar, shu qiz uchun dunyoning narigi chekkasigacha borishga ham tayyor edi. Lekin qishloqdan uzoqlashgan sayin uning qadami sekinlashar, o'zi qilayotgan gunohini endi tushunayotgandek bo'lardi. Go'yo kimdir ko'zga ko'rinmas nozik, juda nozik iplar bilan uni Tentaksoyga bog'lab qo'ygan-u, bu iplar borgan sayin tarang tortilar, yana bir qadam yursa, uzilib ketayotganday bo'lardi... Tirkash tag'in burilib orqaga qaradi. Pastda qishloqni tasmaday o'rab olgan soy yaltirab ko'rinar, ammo

⁴ O'tkir Hoshimov. Sevgi qissalari. Toshkent: O'zbekiston, 2013. – B. 25.

uyalar ko'zga tashlanmas, quyruq daraxtzor ustiga oqshom sharpasi qo'ngandi.
Uzoqda – katta yo'l ustida quyruq chang ko'rindi.

– Poda qaytyapti, – pichirladi u. Birdan ko'z o'ngi qorong'ilashib, xotiralar quyunidan boshi aylanib ketdi".⁵

Xo'sh, Tirkashning yuragida uyg'ongan g'ashlik, "xotiralar quyuni"ni uyg'otgan kuch nima edi? Mana shu o'rinda muallifning hikoyadan ko'zlagan asl badiiy maqsadi yuzaga chiqqan, desak xato qilmagan bo'lamiz. Chunki, Dilordan farqli o'laroq, Tirkashning yuragida Vatan tuyg'usi bor! Tentaksoyni tashlab ketayotganida dilida g'ashlik uyg'otgan ana shu tuyg'u edi. U shunday qudratliki, Tirkash o'zi tashlab ketmoqchi bo'layotgan Vatanning xatto podasini o'ylaganda ham yuragini vahm bosadi!

Tirkashning Dilorga o'tinib aytgan so'zlarini eslang:

– Qishloqqa qaytamiz! – Tirkash juda muhim, aziz bir narsani tushuntirmoqchi bo'lganday, qizning yelkalaridan ushlab, o'tinch bilan silay boshladi. – Iltimos, Dilor, yo'q demagin! Ketishimizdan nima foyda, qayoqqa boramiz? Jon Dilor, xo'p degin, – u qizni bag'riga bosib, shivirlay boshladi: – Tentaksoyga qaytamiz. U yerda mening otam, o'rtoqlarim, traktorim bor, bilasanmi, – u negadir bo'g'ilib ketdi. Tomog'iga tiqilib qolgan iliq bir narsani yutib, arang shivirladi, – bilasanmi, Dilor, u yerda mening... mening Vatanim bor.⁶

Sevgi sof, musaffo va ilohiy xilqat. Ammo dunyoda inson tuyg'ularidanda yuksakroq tushunchalar ham bo'ladi. Kishi o'z tuyg'ulariga o'zligini qurbon qilishi unchalar to'g'ri ish emas. Muhimi inson o'zligini minbad unutmasligi zarur. Tirkash o'z irodasiga tayanib mana shu hayot muvozanatini buzmad. U o'zligini saqlab qoldi. U eng so'nggi daqiqalarda bitta haqiqatni angladi: Vatanni tashlab bo'lmaydi!

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, "Muhabbat" hikoyasida nafaqat ikki insonning bir-biriga bo'lgan muhabbati, balki, kishining o'z Vatanga, tug'ilib-o'sgan diyoriga, tuz ichgan maskaniga bo'lgan muhabbati ham tarannum

⁵ O'tkir Hoshimov. Sevgi qissalari. Toshkent: O'zbekiston, 2013. – B. 24.

⁶ O'tkir Hoshimov. Sevgi qissalari. Toshkent: O'zbekiston, 2013. – B. 26.

etilgan. Ayniqsa, asarning yakunida muallifning asosiy badiiy maqsadi Vatanga boʻlgan muhabbatni ulugʻlash ekanligi bor boʻy-basti bilan namoyon boʻlgan. Bizningcha, hikoyaning nomi ham aslida Tirkash va Dilorning oʻrtasidagi sevgi-muhabbatni emas, Tirkashning Vatanga boʻlgan muhabbatini nazarda tutadi. Oʻtkir Hoshimov “Muhabbat” hikoyasida bir vaqtning oʻzida ikki buyuk insoniy tuygʻu, inson qalbidagi ikki eng pokiza muhabbat turini parallel tarzda tasvirlagan. Asar yakunida esa Vatanga boʻlgan sadoqat Tirkashning xatti-harakati bilan olqishlansa, ikki insonning bir-biriga boʻlgan muhabbati va bu tuygʻuning buyuk qudrati Dilorning Tentaksoyga qaytib kelishida oʻz ifodasini topgan.

Oʻtkir Hoshimov oʻzining “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” ijtimoiy-falsafiy asarida shunday deb yozadi: “Qaysi yurtida non arzon boʻlsa, oʻsha yerga koʻchib yuradigan odamda Vatan tuygʻusi boʻlmaydi”.⁷ Bu misralardagi “arzon non” iborasini arzimagan havoyi nafs deb tushunmoq lozim. Chunki, asl pokiza tuygʻular Vatan tuygʻusini inkor qilmaydi. Tirkash ham oʻz tuygʻularini pok ekanligini, uning qalbida Vatan tuygʻusi mavjud ekanligi bilan isbot qila oldi.

“Muhabbat” hikoyasi oʻzining yuksak badiiyati-yu, misralarida yashirin buyuk gʻoyasi bilan mana ellik yildirki, hamon oʻquvchiga insoniy tuygʻularning ilohiyligi, poklik, hallollik, vafo va sadoqat kabi nekbini tuygʻular, va albatta, Vatan tuygʻusining muqaddasligi haqida taʼlim bermoqda.

⁷ Oʻtkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. Toshkent: Sharq, 2013. – B. 145.